

XORAZM VILOYATIDA ILM-FAN

2020- YIL



Ilm-fan



01 FAN

Ilmiy metod bilan
to'plangan
bilimlarning tartibli
tizimidir



02 FAN

Yangi bilimlarni egallash
bilan bog'liq faoliyatni
ham, bu faoliyatning
mahsuli- olamning ilmiy
manzarasi asosini tashkil
etuvchi bilimlarni ham o'z
ichiga oladi.



03 FAN

Hozirgi davrda jamiyat
taraqqiyotini olg'a siljituvchi
kuch va vosita bo'lib qola-
yotganini kuzatish mumkin.
Xalq va millat dunyoqarashini
shakllantirish, ta'lif-tarbiya,
axloq normalarini vujudga
keltirish, ma'naviy barkamol
insonni tarbiyalashda fan
alohida o'r'in tutmoqda.




Ilmiy tadqiqotlar 2 ga ajratiladi:

- ❖ **Fundamental tadqiqotlar**- tabiat,jamiyat, tafakkurga xos qonunlarni bilib olish. Fundamental tadqiqotlar, odatda, amaliy tadqiqotlardan oldinda bo'ladi va ular uchun nazariy asos yaratadi.
- ❖ **Amaliy tadqiqotlar** - Fundamental tadqiqotlar natijalarini bilim orttirish va ijtimoiy amaliy muammolarni hal qilish uchun qo'llash.



Oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lif tizimi-tayanch doktorantura institutlarning asosiy ko'rsatkichlari (2020- yil, kishi)



Tahsil oluvchilar soni, kishi

Tahsil oluvchilar, qabul qilinganlar va bitiruvchilar
2020-yilda viloyatimizda tayanch doktoranturasi mavjud tashkilotlarning umumiyligi soni 2 tadan iborat bo'lib, ulardan 1 tasi ilmiy tashkilot va 1 tasi oliy ta'lif muassasini tashkil etadi. Ularda tahsil oluvchilar soni 94 nafar bo'lib, qabul qilinganlar 34 nafarni hamda bitiruvchilar esa 23 nafarni tashkil etgan.

O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati

2020 - yilda tayanch doktorantura institutlarida tahsil oluvchilar 94 nafarni tashkil etib, o'tgan yilga nisbatan 9 ta (10,6 %) ga ko'paygan.



Oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lif tizimi-doktaranturaning asosiy ko'rsatkichlari (2020- yil, kishi)

❖ 2021 - yil 1 - yanvar holatiga doktoranturasi mavjud tashkilotlar 2 ta bo'lib, ulardan 1 tasi ilmiy tashkilot va 1 tasi oliy ta'lif muassasasi.

2019- yil

Tahsil
oluvchilar,
qabul
qilinganlar
va
bitiruvchilar

Fan doktori darajasi
izlanuvchilari 3 nafar,
qabul qilingan fan
doktori darajasi
izlanuvchilari 1 nafar,
bitirgan fan doktori
darajasi izlanuvchilari
2 nafar.

Ulardan
ayollar

Fan doktori darajasi
izlanuvchilari 1 nafar,
bitirgan fan doktori
darajasi izlanuvchilari
1 nafar.

2020- yil

Fan doktori darajasi
izlanuvchilari 3 nafar,
qabul qilingan fan
doktori darajasi
izlanuvchilari 2 nafar,
bitirgan fan doktori
darajasi izlanuvchilari
mavjud emas.


Fan doktori darajasi
izlanuvchilari 1 nafar,
qabul qilingan fan
doktori darajasi
izlanuvchilari 1 nafar.



Ilmiy tadqiqot va tajriba-konstrukturlik ishlanmalarni bajargan tashkilotlar (2020-yil, birlik)

Jami tashkilotlar soni-
8 ta

Ish turlari bo'yicha:



- ❖ Xorazm viloyatida 2020 - yilda ilmiy tadqiqot va tajriba-konstrukturlik ishlanmalarni bajargan tashkilotlar 8 ta, shundan kichik korxona va mikrofirmalar 2 ta. Ilmiy tadqiqot bajargan tashkilotlar 5 ta, ilmiy- texnik xizmat ko'rsatgan tashkilotlar 3 ta.



Ish turlari bo'yicha tashkilotlar tomonidan bajarilgan ilmiy tadqiqot va tajriba-konstrukturlik ishlanmalar hajmi (2020-yil, mln. so'm)

- ❖ 2019 - yilda tashkilotlar tomonidan bajarilgan ilmiy tadqiqot va tajriba-konstrukturlik ishlanmalar hajmi 13517,2 mln so'mni tashkil qildi.
- ❖ O'tgan yilning shu davrida tashkilotlar tomonidan bajarilgan ilmiy tadqiqot va tajriba-konstrukturlik ishlanmalar hajmi 4933,1 mln so'mni tashkil qilgan.



• Jami ilmiy tadqiqot va tajriba-konstrukturlik ishlanmalar hajmi

Shu jumladan:

• Ilmiy tadqiqot ishlari

• Ilmiy- texnik xizmatlar



Sektorlar bo'yicha tashkilotlar tomonidan bajarilgan ilmiy tadqiqot va tajriba-konstrukturlik ishlanmalar hajmi (2020- yil, mln. so'm)



- ❖ 2020- yilda bajarilgan jami ilmiy ishlanmalar hajmidan davlat sektoridagi ishlanmalar 1 719,4 mln. so'mni, tadbirkorlik sektoridagi ishlanmalar 10 038,1 mln. so'mni, oliy ta'lim sektoridagi ishlanmalar 1 759,7 mln. so'mni tashkil etdi.



Fan sohalari bo'yicha ilmiy tadqiqot va tajriba-konstrukturlik ishlanmalariga xarajatlar (2020- yil, mln. so'm)

Gumanitar fanlar

219,9

Tibbiyot fanlari

1502,0

Ijtimoiy fanlar

707,4

Texnika fanlari

123,2

Qishloq xo'jaligi fanlari

191,2

Tabiiy fanlar

1030,4


❖ 2020 - yilda tashkilotlar tomonidan ilmiy tadqiqot va tajriba-konstrukturlik ishlanmalariga 3 774,1 mln so'm xarajat qilindi. Bu ko'rsatkich 2019 - yilga qaraganda 13,3% ga kamaygan.

❖ 2020- yilda fan sohalari bo'yicha tashkilotlar tomonidan bajarilgan ilmiy tadqiqot va tajriba-konstrukturlik ishlanmalariga xarajatlarning asosiy qismi tibbiyot fanlar (39,8%), tabiiy fanlar (27,3%) va ijtimoiy fanlar (18,7%) hissasiga to'g'ri keldi.



Sektorlar bo'yicha ilmiy tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlanmalariga xarajatlar (2020- yil, mln. so'm)

- ❖ Ilmiy tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlanmalariga jami xarajatlar 3 774,1 mln. so'mni tashkil etib, shundan davlat sektori bo'yicha 1 719,4 mln.so'mni, tadbirkorlik sektorida 295,0 mln.so'mni, oliy ta'lim sektorida 1759,7 mln.so'mni tashkil etgan. Xususiy notijorat sektorda esa xarajat amalga oshirilmagan.
- ❖ Shu o'rinda ta'kidlash joizki, fan sohasida ko'rsatkichlar 4 ta sektor bo'yicha ajratib ko'rsatiladi.



1719, 4
mln.so'm

DAVLAT
SEKTORI




1759, 7
mln.so'm

OLIY
TA'LIM
SEKTORI



Ilmiy tadqiqot va tajriba-konstrukturlik ishlanmalarni bajargan ilmiy xodimlar (2020- yil, kishi)

- ❖ Ilmiy tadqiqot va tajriba-konstrukturlik ishlanmalari bilan band bo'lgan tadqiqotchi mutaxassislar soni 2020- yilda 2019- yilga nisbatan 48 kishiga oshdi va 1 173 nafarni tashkil etdi.
- ❖ 2020 - yilda tadqiqotchi mutaxassislarning 25,8 % (302 nafari) tabiiy fanlar sohasida, 25,3 % (297 nafari) ijtimoiy fanlar sohasida, 24,4% (286 nafari) gumanitar fanlar sohasida, tibbiyot fanlarida 17,1% (201 nafari), 3,8% (45 nafari) texnika, qishloq xo'jaligi fanlari sohasida esa 3,6% (42 nafari) ilmiy tadqiqot ishlari olib borgan.



- 01 Ilmiy xodimlar jami (oliy ta'lim muassasalarining ilmiy-pedagogik xodimlarini qo'shgan holda)
- 02 Shu jumladan, Ilmiy tadqiqot va tajriba-konstrukturlik ishlanmalarni bajargan tadqiqotchi mutaxassislar
- 03 Fan doktori
- 04 Fan nomzodi
- 05 Falsafa doktori